UNIVERSAL JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES
ISSN 2992-8826
https://sr-journals.org/index.php/UJMANS

TABIAT VA JAMIYAT O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNING ATROF-MUHITGA TA'SIRI

D.B.Sobirova
Buxoro davlat universiteti Geografiya ta'lim yo'nalishi I-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada, tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar evolutsiyasi, hozirgi zamon global ekologik muammolari va ularni oldini olish masalalari to'g'risida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Evolutsiya, tabiat, jamiyat, ibtidoiy jamoa, antropogen landshaft, atmosfera ifloslanishi, daryo, ko'l, dengiz, sanoat, ekologik holat, suv resurs, landshaft.

Maqsad: tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarda yuzaga kelgan muammolarni aniqlash va ularni oldini olish masalalarini tahlil qilishdan iborat.

Materiallar va metodlar: ushbu maqolada tabiat va jamiyat o'rtasida yuz bergan va berayotgan muammolar, ularning hozirgi kundagi holati ilmiy va statistik usullar orqali tahlil qilindi.

Аннотация: В данной статье представлена информация об эволюции взаимоотношений между природой и обществом, современных глобальных экологических проблемах и вопросах их предотвращения.

Ключевые слова: Эволюция, природа, общество, первобытное сообщество, антропогенный ландшафт, загрязнение атмосферы, река, озеро, море, промышленность, экологическое состояние, водные ресурсы, ландшафт.

Цель: выявить проблемы, возникшие во взаимоотношениях между природой и обществом, и проанализировать вопросы их предотвращения.

Материалы и методы: в данной статье проблемы, возникшие и возникающие во взаимоотношениях между природой и обществом, а также их текущее состояние, были проанализированы с использованием научно-статистических методов.

Abstract: This article provides information about the evolution of the relationship between nature and society, current global environmental problems, and issues of their prevention.

Keywords: Evolution, nature, society, primitive community, anthropogenic landscape, atmospheric pollution, river, lake, sea, industry, ecological state, water resource, landscape.

Objective: To identify problems that arise in the relationship between nature and society and analyze issues of preventing them.

Materials and methods: This article analyzes the problems that have occurred and are occurring between nature and society, and their current state, using scientific and statistical methods.

Tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar evolutsiyasi insonning tabiiy muhit bilan o'zaro aloqasi, tabiatning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri, jamiyatning tabiatga ko'rsatgan ta'siri, tabiiy resurslardan oqilona va noo'rin foydalanish oqibatlari, zamonaviy ekologik muammolarni tahlil qilish, barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlik masalalarini o'z ichiga oladi.

BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo'yicha dasturida 17 ta "maqsad"lar berilgan bo'lib, shuning 6-maqsadida belgilangan "Suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash va suvning ifloslanishini oldini olish", 13-maqsadida "Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash", 14-maqsadida

esa “Quruqlik ekotizimlarini tiklash va o’rmonlarni saqlash[1]” ga qaratilgan vazifalar suv omborlarining, quruqlik ekotizimlarining o’zgarishi jamiyat bilan bog‘liqligi hamda rekreatsion imkoniyatlari va ulardan foydalanish masalalarini, suv resurslari, yer resurslari, atmosferadagi o‘zgarishlarni tahlil qilishni, ekologik holatini baholash va ularni monitoring qilish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Tabiat – insoniyatdan tashqarida mavjud bo’lgan barcha moddiy olamni, fizik, kimyoviy, biologik jarayonlar va ular o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikni o’z ichiga olgan murakkab tizimdir.

Jamiyat – bu insonlarning tarixan shakllangan o’zaro munosabatlari, ijtimoiy tizimlari, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma’naviy, faoliyatidan iborat bo’lgan ijtimoiy tizimdir.

Tabiat va jamiyat munosabatlari bo’yicha bir qancha olimlar fikr bildirishgan. Lev Berg “Landshaftlar haqida ta’limot” nomli kitobida “Landshaft, tabiat va inson faoliyati o’rtasidagi o’zaro ta’sir”, - deya fikr bildirgan [3].

Fridrix Engels “Tabiat dialektikasi” nomli asarida “tabiat-jamiyat-tafakkur” o’rtasidagi qonuniyatlarni tahlil qilgan [4]. Bundan tashqari, A.Gumboldt, V.Vernadskiy, P.S.Tyanshanskiy, V.Dokuchayev kabi bir guruh olimlar tabiiy muhitning jamiyat taraqqiyotiga ta’sirini ilmiy tadqiq qilishgan.

Fridrix Engels “Oila xususiy mulk va davlatini kelib chiqishi” kitobida inson tabiatni o’zlashtirishiga qarab jamiyat tarixida 3 davni ajratib ko’rsatadi:

1) Yovvoyilik – tabiatning tayyor mahsulotlarini o’zlashtirish davri.
2) Vahshiylik – bu chorvachilik va dehqonchilik boshlangan davr inson faoliyati yordamida tabiat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko’paytirish usullarini egallash davri.
3) Sivilizatsiya – bu tabiat mahsulotlariga ishlov berishni yanada egallash davri, asl ma’noda sanoat davri [6].

Yer landshaft qobig’ining rivojlanish bosqichini F.N.Milkov (1990) 4 ta davrga bo’ladi:

1. Eng qadimgi davr (Ibtidoiy jamoa davri) - jamiyatning geotizimlar tabiiy holatini buzmaydigan hayot tarzi. Odam paydo bo’lgandan boshlangan. Bu bosqichda inson tabiatni o’zgartirmagan, unga moslashgan. Inson va tabiat o’rtasida munosabat 3-5 mln yildan beri davom etib kelmoqda. Eng qadimgi odamlar – arxantroplarning ilk hayot belgilarini tasdiqlovchi turli qurollarning sharqiy afrikada topilganligi bundan darak beradi. Bu davrning eng muhim xususiyatlari shundaki, a) termachilik bilan kun kechirilgan; b) olov kashf qilingan; c) ovchilik va baliqchilik bilan shug’ullanilgan.
2. Qadimgi davr (Qishloq xo’jaligi inqilobi davri) – bu davr taxminan 7 ming yilni o’z ichiga oladi. Jamiyatning geotizimlarni kichik hududlarda, kam buzilishiga sababchi bo’ladigan hayot tarzi. Bu davrda odam ovchilik va baliqchilikdan seki- asta dehqonchilikka o’tgan. Bu davrning asosiy xususiyati shundan iboratki, dehqonchilik va chorvachilikdan foydalanilgan, mehnat qurollari o’zgarib borishi natijasida inson tabiat bilan muvozanatni buza boshlagan.
3. Yangi davr (Sanoat inqilobi davri) – temir asri boshlaridan XX asrning o’rtalarigacha davom etib, taxminan 3 ming yilni o’z ichiga oladi. Jamiyatning o’z moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida tabiatdan ayovsiz foydalanadigan hayot tarzi hisoblanadi. Bu davr XXIII asrdan boshlangan. Asosiy xususiyatlari shuki, a) 1784-yil bug’ mashinasining yaratilishi bilan “sanoat inqilobi” yuz berdi; b) XX asrning o’rtalarida “yashil inqilob”, ya’ni qishloq xo’jaligida tub burilish yuz berdi; c) jamiyat ehtiyojini qondirish maqsadida tabiat bag’ridan uning boyliklari ayovsiz, pala-partish “yulib olindi”.

Ayrim ma’lumotlarga shuni ko’rsatadiki, inson XIX asrning o’zidayoq yer bag’ridan 22711 ming tonna qo’rg’oshin, 11.373 ming tonna rux, 10.679 ming tonna kumush, 11.5 mimg tonna oltin, 27.5 ming tonna alyuminiy va hokazolarni qazib olgan (A.Klark, 1966) [8].


4. Eng yangi davr (Fan-texnika inqilobi davri) – XX asrning o’rtalaridan boshlandi. Ilmiy texnika inqilobi bilan ta’riflanadigan davr hisoblanadi. Bu davrdagi asosiy xususiyatlar shuki,

[1] 2030-yilgacha barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibi // elektron dostup: http://www.uz/undp/org/.

UNIVERSAL JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES
ISSN 2992-8826
https://sr-journals.org/index.php/UJMANS

a) Ekologik bilim, ong, madaniyat shakllandi va rivojlandi; b) Ekologik tashkilotlar tuzila boshlandi; c) Aholi soni keskin tarzda o'sdi va inson ilm bilan shug'ullana boshladi; d) Fazoni o'zlashtirish kabi ilmiy tadqiqot ishlari boshlandi; e) Dunyoda global ekologik muammolar vujudga keldi. A.M.Ryabchikov (1974) keltirgan ma'lumotlarga qaraganda, inson o'z xo'jalik faoliyati natijasida yer bag'ridan har yili 100 mlrd tonnadan ortiq turli xil ruda boyliklari, yonilg'i xomashyosi, qurilish materiallari qazib olar ekan. Keyingi 60 yil ichida haydalib, ekin ekiladigan yerlar maydoni qariyb 2 barobar ortgan [8].

Global ekologik muammolar — bu butun Yer shariga ta'sir etadigan, yomon oqibatlarga ega bo'lgan ekologik jarayonlar bo'lib, ular butun insoniyat xavfsizligi va tabiiy muhit barqarorligiga jiddiy tahdid tug'diradigan muammolar sanaladi.



1-rasm. Dunyo bo'yicha havo ifloslanishi.

2024-2025-yil ma'lumotlariga ko'ra, Havo ifloslanishi dunyoda Janubiy Osiyo, Janubi-sharqiy Osiyo, G'arbiy va Sharqiy Afrika hududlarida juda yomon holatni ko'rsatadi. Sharqiy Osiyo, Markaziy Osiyo, Markaziy va Janubiy Afrikada bu holat yomon darajada. Markaziy va Janubiy Amerika davlatlarida, Rossiyaning ko'p hududlarida va Sharqiy Yevropada bu ko'rsatkich o'rtacha darajani ko'rsatadi. Aynan Avstraliya, Yevropa qit'asi, AQSH va Kanada hududlarida havo ifloslanish darajasi toza ko'rsatkichni ko'rsatadi.

Tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlar muvozanatining buzilishi natijasida global muammolar vujudga keladi. Atmosferaga CO2, metan, azot oksidi kabi gazlarning ortiqcha chiqarilishi, transport va sanoat korxonalaridan chiqadigan zaharli gazlar atmosfera va iqlim o'zgarishiga sabab bo'ladi. AQSH dagi Butun dunyoni kuzatish institutining mutaxassislaridan biri Lester R. Braunning 1989-yildagi bashoratiga ko'ra, havoning o'rtacha harorati 1,5-4,5 gradus C ko'tarilishi aytilgan. Uning ta'kidlashicha, ushbu hodisa 2030-2050-yillar orasida sodir bo'lishi mumkin. AQSH olimi, Kellogning 1978-yilda ishlab chiqqan hisob-kitoblariga ko'ra, dunyo bo'yicha havo harorati 2000-yilda 1,2 gradus C, 2050-yilga borib esa 4 gradus C ga ko'tariladi [7]. Iqlimning isishi suv resurslarining suv yuzasidan bug'lanishi hisobiga 10-15% ga kamayishiga olib keladi. Cho'llanish jarayoni yer yuzidagi quruqlikning 30% ga yaqin maydonini egallagan qurg'oqchil iqlimli hududlar uchun xos. Qurg'oqchilik cho'llanish jarayonining "xamirturushi" hisoblanadi. X-XVIII asrlar davomida Rossiyada 40 marta qurg'oqchilik sodir bo'lgan, XIX asrda esa 9 marta qurg'oqchilik sodir bo'lgan [5]. Ko'p yillik tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, cho'llanishning 45 turdagi sababi anqlangan, shundan tabiiy omil sabab 13% i, antropogen omil sabab esa 87% kuzatilgan.

Aynan 2025-yil holatiga ko'ra, Dehli, Mumbay, Hanoi kabi shaharlarda havo ifloslanishi keskinlashgan. Toshkent shahri ham 2024 global reytingida "dunyo eng iflos shaharlari" orasida

bo'lgan. Havo ifloslanishi eng xavfli ekologik tahdidlardan biri bo'lib, har yili millionlab odamlarning erta vafot etishiga sabab bo'lmoqda [9]. Dunyo aholisining qariyb 90% i iste'mol va yuvinishda sifatsiz va ifloslangan suvdan foydalanadi. Aynan Angliya va Uels hududlarida 80% suvning ifloslanishiga fermer xo'jaliklari sabab bo'lar ekan. Science Advances jurnalida bosib chiqarilgan maqolada ta'kidlanishicha, yaqin 25-30 yil davomida jahonda ichimlik suv zahirasi ikki barobar qisqarar ekan. Bugungi kunda yer yuzidagi suvlarning atigi 3%ini chuchuk suv tashkil qiladi.

Xulosa va takliflar. Hozirda yer yuzining 75% I cho'llashgan. O'zbekistonda esa har daqiqada 9 kv.m hudud cho'llanib boryapti. Qarnobcho'l, mirzacho'l, sherobod, dalvarzin, qoraqalpoq cho'llari chegaralari kengayib boryapti. Tabiatga inson ta'sirining yildan-yilga ortib borishi, o'z navbatida tabiat qonuniyatlarini chuqur bilishni, shuningdek, tabiat va uning resurslaridan tejab-tergab, oqilona foydalanishni talab etadi. Ushbu maqolani yozib, xulosa chiqargan holda:

- Yer resurslaridan tejab-tergab foydalanish;
- Sug'orish suvidan meyoridan ortiqroq foydalangan holda tuproqlarning sho'rini yuvish;
- Tuproqlar eroziyasiga qarshi kurashish;
- O'zbekistondagi umumiy yer resurslarini ifloslanishdan saqlash va chiqindisiz texnologiyalarni ishlab chiqish;
- Cho'llanishni oldini olish maqsadida daraxt va butalarni ko'paytirish va daraxtlar kesilishini kamaytirish;
- Yer resurslaridan foydalanishda iqtisodiy rag'batlantirish, ifloslantirganlik uchun har bir shaxsga jarima solish;

kabi chora-tadbirlar o'tkazish lozim deb hisoblayman. Biz tabiatimizni asrashimiz, uni muhofaza qilishimizundan oqilona foydalanishimiz, har bir yer resurslarini muhofaza qilishimizhar bir shaxsning burchidir. Chunki muhofaza etmasak, bu yerning qashshoqlashishi va cho'llashishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.:O'zbekiston, 2017.
2. Tabiatni nuhofaza qilish to'g'risidagi qonun. 754-XII-son. 09.12.1992.
3. Берг.Л.С. "Учение о ландшафтах и географических зонах", - Москва–Ленинград: "Государственное издательство географической литературы", 1931.
4. F.Engels."Tabiat dialektikasi" – Berlin, "Dietz Verlag", 1927.
5. Nazarov.Q.I. "Geografiya fanining asosiy muammolari", O'quv qo'llanma., Toshkent: "Muharrir", 2013.122-129 betlar.
6. Nurov N.U. "Tabiatdan foydalanishning geografik asoslari".- O'quv-uslubiy qo'llanma. Buxoro, 2006. 17-b.
7. Rafiqov A.A. Geoekologik muammolar., o'quv qo'llanma, – Toshkent.:"O'qituvchi", 1997. 18-19 bet.
8. Zokirov S.SH, Toshov R.X. "Landshaftshunoslik". - O'quv qo'llanma. Toshkent: "Dizayn-press", 2013. 121-123 betlar.
9. https://www.globalissues.org
10. https://www.uz/undp/org.
11. https://www.gazeta.uz.
12. https://www.geografiya.uz.